

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Nao'betova Ziyada Niyet qizi

Toshkent Temir yo'l texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10803000>

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbollari yoritib berilgan. Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi dolzarbligi va uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muhimligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek raqamli tadbirkorlik haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, tadbirkorlik, raqamli tadbirkorlik, investitsion muhit.

### EFFECTIVE WAYS TO DEVELOP BUSINESS ACTIVITIES IN THE DIGITAL ECONOMY

**Abstract.** The article describes the prospects for the development of entrepreneurship in the digital economy. The relevance of the digital economy today and its importance in the development of entrepreneurship are shown. Information about digital entrepreneurship was also provided.

**Key words:** digital economy, electronic government, innovation, digital technologies, entrepreneurship, digital entrepreneurship, investment environment.

### ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

**Аннотация.** в статье описаны перспективы развития предпринимательства в условиях цифровой экономики. Показана актуальность цифровой экономики сегодня и ее значение в развитии предпринимательства. Также была предоставлена информация о цифровом предпринимательстве.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, электронное правительство, инновации, цифровые технологии, предпринимательство, цифровое предпринимательство, инвестиционная среда.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan [1].

Raqamli iqtisodiyot – bu o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste'mol qilish va boshqaruv jarayonlarining raqamli texnologiyalar hamda internet yordamida ma'lumot almashinishni optimallashtirish orqali kata foyda ko'rishga qaratilgan faoliyatdir. Raqamli jamiyatda muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, xususan, uning mehnat sharoitlariga ta'siri sezilarli bo'ladi. Raqamli transformatsiya sharoitida avtomatlashtirish jarayonlarining kuchayishi, sun'iy intellekt, ulkan ma'lumotlar bilan ishlaydigan analitik tizimlar, robotlardan foydalanish ko'lamining ortishi mehnat resurslari uchun o'rinbosar bo'lib xizmat qiladi. Mening

fikrimcha raqamli iqtisodiyot bu – kelajak. Milliy iqtisodiyotimizning rivojlanishi uchun raqamli iqtisodiyotning o'zini beqiyos.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi birinchi bo'lib, 1994-yilda Tapskottning "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli razvedka asrida va'da va xavf-xatar" nomli asarida keltirilgan. Uning fikricha, raqamli iqtisodiyotni kompaniya nazariyasiga asoslangan holda, biznesning yangi ommaviy axborot vositalariga o'tishiga oid bir qator farazlarni shakllantirgan. Raqamli iqtisodiyot bilimlarni boshqarish, raqamli aloqa, virtualizatsiya, internet orqali integratsiya, vositachilardan qochish, sohalarni yaqinlashtirish, innovatsiya, iste'molchiga individual xizmat, tezkor javob, globalizatsiya, raqamli bo'linish kabi xususiyatlarga ega [2].

N.Leyn ta'kidlashicha, "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasiga quydagicha ta'rif beradi. Internetda hisoblash va kommunikatsiya texnologiyalarining yaqinlashuvi va natijada elektron tijorat va keng tashkiliy o'zgarishlarni rag'batlantiradigan axborot va texnologiyalar oqimi [3].

Ta'kidlash zarurki, jahonda ko'zga ko'ringan xorijlik iqtisodchi olimlardan – A. Bxayd, Dj.K. Gel- breyt, U. Zalman, I.M. Kirsner, L. fon Mizes, F. Nayt, Dj. Stensill, F. Xayek, Y. Shumpeter, K.V. Aysel, M.P. Voynarenko, G.K. Ginsa, P.Yu. Yerofeyeva, M.Z. Ilchikova, G.B. Kleyner, Ye.Ye. Kuzmina, L.P. Kuzmina, G.S. Merzlikina, A.F. Moskovseva, Ye.F. Cheberko L.S. Shaxovskaya va boshqalar, O'zbekistonda A.Abduganiev, Q.Abduraxmonov, X.Abulqosimov, Z.Xudoyberdiyev, Z.Tolametova kabi olimlar tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini katta e'tibor bilan o'rganaganlar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli tadbirkorlik masalalari V.Y.Pestov, B.G. Preobrajenskiy, N.A. Serebryakova, T.O. Tolstix kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotiga jadal kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirishini yuzaga keltirdi. Iqtisodiyotning barcha jabhalarida ulardan samarali tarzda foydalanish bugungi kun talabiga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya tez sur'atda o'zgarayotgan bugungi kun dunyosi uchun asosiy vositadir.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulotlarni izlash xarajatlari keskin kamayadi;
- raqamli iqtisodiyotdagi tovarlarning bir iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishi boshqa mahsulotlarga bo'lgan talab va ularning sifatini pasaytirmaydi;
- raqamli iqtisodiyotda mahsulotlarni tashish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish xarajatlari nolga teng;
- raqamli texnologiyalar yordamida iste'molchining xarakterini osonlik bilan o'rganish mumkin. Bu esa o'z o'rnida birga-bir bozorlarni yaratadi;
- raqamli texnologiyalar mahsulot brendi va nufuzini yaratishni ham osonlashtiradi;
- raqamli iqtisodiyotda savdo-sotiqalar elektron shaklda chegaralarni oson kesib o'tadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi mamlakatlararo biznes faoliyatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida katta rivojlanishlar bo'lmoqda va bular kompaniyalar faoliyatining turli sohalarida o'z ifodasini topishi mumkin. Internet orqali butun dunyo bo'ylab o'z mahsulotlarini sotuvga qo'yib online savdoni yo'lga qo'yishlariga imkoniyat tug'iladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkor ishlab chiqarishni yangidan yangi kombinatsiyalarini yaratadi, o'z faoliyatiga turli xildagi texnologiyalarni tadbiriq etadi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida tadbirkorlikni yangi ko'rinishlari, ya'ni raqamli tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik kabilar rivojlanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning yangi bilimga yo'naltirilgan tarmoqlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion sektorini, shuningdek "raqamli tadbirkorlikni" shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini yaratadi [4].

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarmoqlarini, jumladan tadbirkorlik faoliyatini innovatsion usulda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qo'yilgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakatimiz fuqarolarining turmush farovonligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish, iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim shartidir. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida barcha tarmoqlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi qulay investitsion muhitning shakllanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bu qo'shimcha imkoniyatlarning yaratilayotganligidan darak beradi. Uning rivojlanishi bilan yangi, zamonaviy ish o'rinlari paydo bo'ladi. Insonlarning ortiqcha sarf-xarajat qilishlari hamda ortiqcha vaqtlarini o'g'irlanishining oldini oladi. Yalpi ichki mahsulotda raqamli iqtisodiyotning ulushining ko'payishi, yalpi ichki mahsulotning ham shunga mutanosib tarzda o'sishiga olib keladi. Pirovard natijada esa mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim dolzarb masala bo'lib hisoblanadi hamda bugungi kunda bu sohada ko'p islohatlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliyotga tadbiriq etilishi natijasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishilib kelinmoqda. Bundan tashqari bunga proporsional tarzda mamlakat iqtisodiyotida investitsiyalarning hajmi ham oshib bormoqda. Bu esa mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir. Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali, narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish, "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim.

## REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020 yil 28 aprel.
2. D. Tapscott, "The digital Economy: promise and peril in the age of networked intelligence."- New York: McGraw-Hill.-1997.

3. N.Lane Advancing the Digital Economy into the 21<sup>st</sup> Century (Assistant to the US President for Science and Technology), 1999.
4. Khakimova, M. Kh. (2021). USING THE “BRAINSTORMING” METHOD IN TEACHING SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS. *Bulletin of Science and Education* , (6-3 (109)), 56-61.
5. Kiyamov, A., Khakimova, M., Ochilova, M., Razzakov, T., & Begimkulov, F. (2023). Roller-combing machine for preparation of combs. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 390). EDP Sciences.
6. Juliev, M., Ng, W., Mondal, I., Begimkulov, D., Gafurova, L., Hakimova, M., ... & Saidova, M. (2023). Surface displacement detection using object-based image analysis, Tashkent region, Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 386). EDP Sciences.
7. Khakimova, M. X., & Bo'riyeva, S. Z. (2022). The Amount of Different Forms of Iron Contained in Soils Formed in Tertiary Reddish Deposits. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 6, 157-162.
8. Rakhimov, D., Juliev, M., Agzamova, I., Normatova, N., Ermatova, Y., Begimkulov, D., ... & Ergasheva, O. (2023). Application of hyperspectral and multispectral datasets for mineral mapping. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 386). EDP Sciences.